

**MADANIYATLARARO MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI VA
METODIKALARNI TAKOMILLASHTIRISH**

Ziyayeva Muhayyo Usmonjonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Xorijiy til va adabiyoti Ingliz tili 3-fakulteti katta o'qituvchisi****Email: Muhayyo23@mail.ru**

Abduraximova Zaynab Zulfiqorovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi**Email: abduraximovazaynab6@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20179454>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida muloqot jarayonida yuzaga keladigan madaniy to'siqlarni bartaraf etishning zamonaviy vositalari, xususan, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning o'rni yoritib berilgan. Muallif tomonidan madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda talabalarning lingvistik va sotsiomadaniy bilimlarini integratsiyalashga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola yakunida madaniyatlararo muloqot metodikasini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, metodika, madaniy kompetensiya, globallashuv, raqamli ta'lim, muloqot vositalari, integratsiyalashgan yondashuv, tolerantlik.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and methodological foundations for developing intercultural communication in the context of globalization. The study highlights the role of modern tools, particularly interactive methods and digital technologies, in overcoming cultural barriers that arise during the communication process. The author has developed methodological recommendations aimed at integrating students' linguistic and socio-cultural knowledge to form intercultural competence. The article concludes by outlining promising directions for improving the methodology of intercultural communication.

Keywords: intercultural communication, methodology, cultural competence, globalization, digital education, communication tools, integrated approach, tolerance.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi jahon miqyosida integratsiya jarayonlarining kuchayishi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning misli ko'rilmagan darajada kengayishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda turli sivilizatsiya va madaniyat vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shunchaki muloqot vositasi emas, balki jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining strategik omiliga aylanmoqda. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - bo'lajak mutaxassislarda nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdan iboratdir.

Madaniyatlararo muloqot - bu turli madaniyat vakillarining o'zaro tushunishga yo'naltirilgan o'ziga xos aloqa shakli bo'lib, u nafaqat til o'rganishni, balki o'zga millatning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlar va muloqot etikasi (non-verbal signal va imo-ishoralar)ni chuqur anglashni talab etadi. Biroq, amaliyotda ko'pincha "lingvistik to'siq"dan ko'ra "madaniy to'siq" muloqotning samaradorligiga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. Bir tilda gaplashuvchi, ammo turli madaniy muhitda voyaga yetgan insonlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar ko'pincha muloqot strategiyalarining yetishmasligi oqibatida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish

vositalari va metodikalarini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda. An'anaviy o'qitish usullari bugungi kun talabalarining ehtiyojlarini, shuningdek, raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini to'liq qamrab olmayapti. Ushbu maqolada biz aynan mana shu bo'shliqlarni to'ldirish, muloqot jarayonidagi stereotiplarni bartaraf etish va talabalarni global dunyo fuqarosi sifatida tayyorlashning zamonaviy metodik yondashuvlarini tahlil qilishni maqsad qildik. Madaniy muloqotni tizimli rivojlantirish orqali biz talabalarda bag'rikenglik (tolerantlik) va sotsiomadaniy moslashuvchanlikni shakllantirishimiz mumkin, bu esa o'z navbatida xalqaro mehnat bozorida kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartidir.

1. Madaniyatlararo muloqotda metodik yondashuvlarning ilmiy-nazariy asoslari.

Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish jarayoni shunchaki xorijiy tilning grammatik qoidalari yoki lug'at boyligini o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy tilshunos olim I.Xaleeva ta'kidlaganidek, "Chet tilini o'rgatish – bu o'zga madaniyat vakili obrazini (ikkinchi til shaxsini) shakllantirishdir". Bu jarayon muloqot ishtirokchisining o'z madaniy kelib chiqishini anglagan holda, o'zga madaniyat vakillarining xulq-atvori va qadriyatlarini xolis qabul qila olish qobiliyatini, ya'ni "madaniy ong"ni shakllantirishni talab qiladi.

Avvalo, muloqot poydevori hisoblangan Kognitiv yondashuvning pedagogik mohiyatiga to'xtalib o'tishimiz joiz. Mashhur antropolog va muloqot nazariyotchisi Edvard T. Xoll o'zining "The Silent Language" asarida madaniyatni "yashirin xarita" deb ataydi. Uning "yuqori va past kontekstli" (high and low context) madaniyatlar nazariyasi bugungi metodikada markaziy o'rin tutadi. Masalan, yapon yoki arab (yuqori kontekstli) madaniyatlarida muloqotning katta qismi so'zda emas, balki vaziyat va noverbal signallarda ifodalansa, nemis yoki amerika (past kontekstli) madaniyatlarida asosiy urg'u aniq so'zlarga beriladi. Shu sababli, kognitiv metodikani takomillashtirishda Gert Xofstede ning "madaniy o'lchovlar" (cultural dimensions) modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Uning "individualizm va kollektivizm" yoki "hokimiyat masofasi" (power distance) kabi tushunchalarini tahlil qilish talabaga "nima uchun ular aynan shunday muloqot qiladi?" degan savolga ilmiy javob topishga yordam beradi. Bu bilimlar talabaning ongida madaniy xaritaning shakllantirib, muloqot paytidagi "noaniqlik" darajasini pasaytiradi.

Biroq, faqat intellektual bilimning o'zi yetarli emas; zero, mashhur ustoz Milton Bennett aytganidek, *"Madaniyatlararo sezgirlik – bu madaniyatni bilish emas, balki madaniy farqlarni boshdan kechirishdir"*. Shu nuqtada biz Affektiv (Hissiy-psixologik) yondashuv ning hayotiy zaruriyatiga duch kelamiz. Bennetning "Madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli" (DMIS) bo'yicha, talaba etnosentrizm (o'z madaniyatini yagona to'g'ri o'lchov deb bilish) bosqichidan etnorelyativizm (farqlarni qabul qilish va moslashish) bosqichiga o'tishi shart. Affektiv yondashuv doirasida metodika talabani kognitiv empatiyaga o'rgatishi kerak. Bu jarayon talabada o'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi farqlarni "yaxshi" yoki "yomon" deb emas, balki shunchaki "boshqacha" (different) deb qabul qilish ko'nikmasini yaratadi. Natijada, muloqot paytida yuz beradigan "madaniy shok" holatlari agressiya emas, balki vaziyatni anglash va moslashishga xizmat qiladi. Bilim va hissiy tayyorgarlik shakllanganidan so'ng, ushbu ichki o'zgarishlar amaliy harakatga - Xulq-atvor (Behavioral) yondashuviga aylanishi shart. Tadqiqotchi M. Byram o'zining "Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi" modelida ta'kidlaganidek, mutaxassis "madaniyatlararo vositachi" (intercultural mediator) rolini o'ynashi kerak. Bu yo'nalishda muloqotning verbal va noverbal elementlari, xususan, Rey Birdvistell asos solgan "kinesika" (tana harakatlari) va Edvard Xoll ning "proksemika" (shaxsiy

masofa) nazariyalari metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, muloqot masofasining buzilishi yoki noto'g'ri nigoh (eye contact) tili hatto mukammal grammatik nutq bo'lganda ham muloqotni barbod qilishi mumkin. Metodikani takomillashtirish doirasida talabalarga muloqot strategiyalarini real vaziyatlarda qo'llash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni diplomatik yo'l bilan yumshatish mahorati o'rgatiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, zamonaviy metodika olimlar G. Gums va D. Xayms ilgari surgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasini kengaytirib, uni madaniy komponentlar bilan boyitishni taqozo etadi. Intellectual bilim (kognitiv), hissiy yetuklik (affektiv) va amaliy mahorat (xulq-atvor) uyg'unligi talabani global muhitda har qanday vaziyatga moslasha oladigan tolerant mutaxassis sifatida shakllantiradi.

2. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning innovatsion vositalari va metodik simulyatsiyalar haqida so'z yuritamiz.

Yuqorida ta'kidlangan kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlarini talaba ongiga singdirish uchun an'anaviy grammatik-tarjima metodidan voz kechib, evristik va interaktiv modellar ga o'tish lozim. Zamonaviy metodikani takomillashtirishda asosiy urg'u talabani "passiv tinglovchi" dan "faol madaniy tadqiqotchi" ga aylantirishga qaratiladi. Shu nuqtai nazardan, birinchi navbatda "Kritik hodisalar" (Critical Incidents) tahlili metodikasining samaradorligini alohida ta'kidlash joiz. Bu metod mazmunan Richard Brislin tomonidan taklif etilgan bo'lib, unda talabalarga ikki xil madaniyat vakillari o'rtasida tushunmovchilik yoki nizo kelib chiqqan real mini-keyslar taqdim etiladi. Masalan: Germaniyalik menejerning o'zbekistonlik xodimga bergan to'g'ridan-to'g'ri tanbehi (low context) va xodimning buni shaxsiy haqorat sifatida qabul qilishi. Talabalar ushbu vaziyatni G. Xofstede ning "hokimiyat masofasi" yoki E. Xoll ning "kontekst" nazariyalari prizmasidan tahlil qiladilar. Bu jarayon talabada shunchaki bilimni emas, balki vaziyatni tahlil qilish va yechim topish strategiyasini shakllantiradi.

Fikrimizning mantiqiy davomi sifatida, affektiv tayyorgarlikni kuchaytirishda "Madaniy simulyatsiya" (Cultural Simulation Games) o'yinlarining o'rni beqiyosdir. Masalan, dunyoga mashhur "BaFa' BaFa'" simulyatsiyasi talabalarni ikki xil - "Alfa" (munosabatlarga yo'naltirilgan) va "Beta" (savdo va raqobatga yo'naltirilgan) madaniyatlarga ajratadi. Talabalar o'zga "qabila" qoidalarini bilmagan holda ular bilan muloqotga kirishishlari kerak. Bu metodika talabaga "madaniy shok"ni xavfsiz akademik muhitda his qilish imkonini beradi. Olim S. Tiagarajan ta'kidlaganidek, "O'yin - bu jiddiy o'rganishning eng yuqori shaklidir" . Bunday o'yinlar orqali talabadagi etnosentrizm darajasi pasayib, tolerantlik darajasi keskin oshadi.

Metodikaning keyingi bosqichi sifatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI) imkoniyatlaridan foydalanishni takomillashtirish zarur. Bugungi kunda VR (Virtual borliq) texnologiyalari talabani soniyalar ichida Tokio ko'chalariga yoki London biznes markaziga virtual "ko'chirish" imkoniyatiga ega. Bu yerda talaba nafaqat tilni, balki "proksemika" qoidalarini - ya'ni o'zga madaniyatda suhbatdosh bilan oraliq masofani saqlashni amalda mashq qiladi. Shuningdek, "Tandem Learning" raqamli platformalari orqali xorijiy universitet talabalari bilan to'g'ridan-to'g'ri video-muloqotlar tashkil etish "til to'sig'i"ni tabiiy muhitda yengishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi endi "ma'lumot beruvchi" emas, balki "fasilitator" (yengillashtiruvchi) vazifasini bajaradi. Xulq-atvor ko'nikmalarini mustahkamlashda esa "Video-feedback" (videotasvir orqali teskari aloqa) metodi juda qo'l keladi. Talabalarining muloqot jarayoni videoga olinadi va keyinchalik ularning noverbal

harakatlari (imo-ishora, nigoh, tana tili) tahlil qilinadi. Bu metod talabaga o'zini "tashqaridan ko'rish" va madaniy xatolarni anglab, tuzatish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy vositalarni metodik tizimga integratsiya qilish - ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu metodlar majmuasi talabani qolipga solingan qoidalaridan xalos etib, uni ijodiy fikrlaydigan, har qanday madaniy muhitda o'z "yo'lini topa oladigan" universal muloqot sohibiga aylantiradi. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish - bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim bitiruvchisining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, samarali muloqot faqatgina xorijiy tilning grammatik va leksik qoidalarini bilish bilan cheklanmaydi; u muloqot ishtirokchisidan yuqori darajadagi madaniy ong va sotsiomadaniy moslashuvchanlikni talab etadi.

Xulosa. E. Xoll va G. Xofstede kabi olimlarning nazariyalari asosida takomillashtirilgan metodikalar shuni isbotlaydiki, talabalarda "madaniyatlararo vositachi" rolini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga "Kritik hodisalar" tahlili va VR-simulyatsiyalar kabi innovatsion vositalarni tizimli integratsiya qilish zarur. Shu bilan birga, Milton Bennett modeli ko'rsatganidek, talabaning hissiy dunyosida o'zga madaniyat qadriyatlariga nisbatan empatiya va tolerantlikni uyg'otish muloqotdagi ko'plab nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. Kelajakda o'quv dasturlariga sotsiomadaniy komponentlarni kengroq kiritish va baholash tizimida madaniy kompetensiya (CQ) mezonlarini ustuvor etib belgilash bitiruvchilarning nafaqat til sohibi, balki dunyo miqyosida erkin muloqot qila oladigan professional mutaxassis bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hall, E. T. (1959). *The Silent Language* . New York: Doubleday & Company. (Madaniyatlararo muloqot va kontekstlar nazariyasi bo'yicha fundamental asar).
2. Hofstede, G. (2001). *Cultures and Organizations: Software of the Mind* . McGraw-Hill. (Madaniy o'lchovlar va milliy qadriyatlar tahlili).
3. Bennett, M. J. (1993). *Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity* . Yarmouth, ME: Intercultural Press. (Madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli).
4. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence* . Multilingual Matters. (Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodikasi).
5. Khaleeva I. I. (1989). *Fundamentals of the Theory of Teaching Understanding of Foreign Language Speech* . Moscow: Vysshaya shkola. (Ikkinchi til shaxsini shakllantirish nazariyasi).
6. Brislin, R. W. (1986). *Intercultural Interactions: A Practical Guide* . SAGE Publications. (Kritik hodisalar va keyslar tahlili metodikasi).
7. Ter-Minasova S. G. (2000). *Language and Intercultural Communication* . Moscow: Slovo. (Til va madaniyat aloqadorligi masalalari).